CHORVACHILIK XO‘JALIGINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINI O‘RGANISH HAQIDA

F.E. Toshboev
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
“O‘zbekiston tarixi”kafedrasi, t.f.d. (DSc), professor

Annotatsiya: Chorvachilik xo‘jaligining keng ommaashishi masalasini o‘rganishda ko‘chmanchilar tarixida ko‘p kuzatiladigan migratsiyalar masalasiga ham alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shu paytgacha yaratilgan adabiyotlarda bronza davri chorvadorlarining O‘rta Osiyoda yoyilishi Andronovo madaniyati arxeologik majmualari bilan bog‘lanardi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Yevrosiyo, Andronovo madaniyati, Zarafshon vohasi, Qorasuk madaniyati, Volgabo‘yi, Janubiy Ural, Qozog‘iston va Sibir hududlari.

Chorvachilik xo‘jalik turi asrlar davomida to‘plangan boy tajribalar va bilimlarni vorisiylik an’analariga ko‘ra avloddan-avlodga o‘tkazib shu bugungi kungacha etib kelgan. Ushbu tarixiy taraqqiyot jarayonlari ya’ni, chorvachilikning shakllanishi va rivojlanishi va jamiyat tuzilishi bilan bog‘liq masalalarning nazariy-uslubiy jihatlarini o‘rganish ko‘chmanchi chorvadorlar tarixining konseptual muammolaridan hisoblanadi.

Chorvadorlar moddiy madaniyati arxeolog – tarixchilar tomonidan ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida o‘rganib kelinmoqda. Ularning turmush tarzi, ma’naviy hayoti va urf-odatlari yozma manbalar, hamda etnografik materiallar asosida ham o‘rganilgan. Biroq, ularning aksariyat qismi sobiq sovet davrida, o‘sha paytda mavjud bo‘lgan, bir yoqlama nazariy metodologik asosga tayanib yoritilgan. SSSR davrida tarix fanlarining ham falsafiy metodologik asoslarini markscha-lenincha falsafa tashkil etib u dialektik va tarixiy materializm deb yuritilar edi. Voqelik jumladan kishilik tarixini dialektik materialistik tushunishda bugungi kunga kelib o‘zgarishlar yuz berdi. Tabiatni dialektik materialistik tushunish bugungi kunda ham tabiatshunoslik fanlari ilmiy tadqiqot ishlarida davom etmoqda. Ammo kishilik tarixini dialektik materialistik tushunish o‘zining bir tomonlamaligi bilan tanqidga uchradi.

Bu o‘z mohiyatiga ko‘ra markscha tushunish asosida shakllangan tarixiy materializm markscha-lenincha ijtimoiy falsafa sifatida moddiy ne’matlarning kishilik tarixidagi rolini mubolag‘alashtirib yuborar edi. Jamiyatdagi ma’naviyat kabi boshqa omillarning o‘rni va roliga ikkinchi darajali xodisalar sifatida qaralar va shu narsa talab qilinar edi.

Chorachilik xo‘jaligining rivojlanish tendensiyasi va hududlar kesimida tarqalishi va rivojlanishi olimlarni hamisha qiziqtirib kelgan. XX asrga kelib Yevrosiyo ko‘chmanchi chorvadorlari bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar tarixiy manbashunoslik va arxeologik izlanishlar orqali qo‘lga kiritilgan Ko‘chmanchi chorvachilikka oid ilmiy qarashlarda umumiy xususiyatga ega muammolarining uslubiy jihatlarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq, arxeologiya fanidagi bartaraf etilmagan kamchiliklardan biri ham aynan qadimgi sivilizatsiyalar taraqqiyotida ko‘chmanchi xalqlarning tutgan o‘rniga to‘g‘ri baho bermaslik, ko‘pincha ularni bosqinchilar sifatida e’tirof etishning kuzatilishidir. Chorvadorlar tarixi va madaniyatini o‘rganishda bunday yondoshuv sovet davri tarixshunosligida mavjud bo‘lgan, bir yoqlama nazariy metodologik asosga tayanib yoritilgan.

Chorvachilik xo‘jaligining keng ommaashishi masalasini o‘rganishda ko‘chmanchilar tarixida ko‘p kuzatiladigan migratsiyalar masalasiga ham alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shu paytgacha yaratilgan adabiyotlarda bronza davri chorvadorlarining O‘rta Osiyoda yoyilishi Andronovo madaniyati arxeologik majmualari bilan bog‘lanardi. Zarafshon vohasi o‘rta qismida joylashgan yodgorliklarda Afanasevo madaniyatiga oid moddiy madaniyat va marosimlar an’analarining aniqlanishi, bu erlarga mil. avv. IV ming yillik oxirlari – III ming yillikning boshlarida Janubiy Sibirdan, migratsiyalar tufayli, ko‘chmanchilarning kirib kelishidan dalolat beradi. Biroq, ommaviy ravishda, Srubnaya (Yog‘ochband) – Andronovo madaniyatlari dasht qabilalarining Volgabo‘yi, Janubiy Ural, Qozog‘iston va Sibir hududlaridan O‘rta Osiyoga kirib

kelishi mil. avv. II ming yillikning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Natijada chorvadorlar mintaqaning suv manbalari mavjud dehqonchilik vohalari va uning atroflarini o‘zlashtirib, mahalliy aholi bilan aloqalar yuzaga kelishi oqibatida madaniy va etnik jihatdan qorishib ketishi jarayonlari boshlanadi.

Ta’kidlash lozimki, mil. avv. III-II ming yilliklarda Xuanxe daryosining shimolidagi bepoyon cho‘llarda eneolit davri Afanasevo va Okunevo chorvadorlarida Qorasuk madaniyati shakllanadi. Mongoliya va sharqiy Manjuriyagacha bo‘lgan hududlarda esa plita qabrlar madaniyati vujudga kelgan. Uzoq Sharq va Shimoliy Osiyoda boshqa mahalliy arxeologik madaniyatlar (tekisliklarda ot va shimol bug‘usi boquvchilari madaniyatlari) ham mavjud bo‘lgan. Bu madaniyatga tegishli o‘ra ko‘rinishdagi qabrlar “yamnые kultura” nomini olgan Afanasevo va uning so‘ngi bosqichi hisoblangan Okunevo ta’sirida vujudga kelganligi ta’kidlanadi. Keyingi yillarda, Oltoy o‘lkasidagi Korako‘l madaniyatiga oid qabrlar ham tosh yashiklardan iboratligi aniqlangan. Bu madaniyatga oid qabrlarni o‘rgangan arxeologlar ularni uch xil tipga ajratganlar. Ular barcha tomondan tosh plitalar bilan o‘ralgan tosh yashik ko‘rinishidagi qabrlar (Ozernoe qishlog‘i atrofidagilar), qabr uyumi Afanasevo davriga xos bo‘lgan yorma qabrlar (Qorako‘l, Saldyar) va alohida joylashgan qabrlar. Masalaning muhim tomoni shundaki, O‘rta Osiyoning boshqa hududlaridagi kabi Ustrushonada ham chorvachilikning rivojlanishi Andronovo madaniyati qabilalarining migratsiyalaridan boshlangan.

Chorvachilikning shakllanishi va mintaqadagi asosiy xo‘jalik turidan biriga aylanishi borasida so‘z yurtganda, uning tabiiy sharoitdan kelib chiqqan holda ommalashgan, ko‘chish turlariga ham ahamiyat berish kerak kerak bo‘ladi. S.P. Polyakovning ta’kidlashicha, “O‘rta Osiyoda chorvachilikning meridional, vertikal va statsionar tarzda ko‘chib xo‘jalik yurituvchi shakllari mavjud bo‘lgan”. Ular xo‘jalik yuritishiga qarab “haqiqiy ko‘chmanchilar” yoki “sof ko‘chmanchilar” va mavsumiy ko‘chmanchilar boshqacha aytganda “qo‘nar ko‘char jamoalar”ga bo‘linadi. Bunda meridional (yotiq) ko‘chuvchilar, asosan, Yevroosiyoning shimoliy mintaqalari Qozog‘iston, Janubiy Sibir va Mongoliya dashtlari uchun harkterli bo‘lib, Mirzacho‘l orqali Yevrosiyo ko‘chmanchilari (keyinchalik qozoqlar)ning Ustrushona tog‘ yonbag‘irlari (asosan, Nurota shimoliy yonbag‘irlari)ga kelib qishlashi hisobiga Ustrushonada ham qisman meridianal ko‘chuvchilar bo‘lgan.

Yevroosiyodagi ko‘chmanchi chorvachilik o‘z xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qilgan. Uning shimoliy qismida yashagan ko‘chmanchilar hamisha ko‘chib yurishda bo‘lib, ular xo‘jaligi sof ko‘chmanchilikni saqlab qolgan. O‘rta Osiyoning markaziy va janubiy hududlarida xo‘jalik yurituvchi chorvadorlar esa doimo daryo vohalaridagi bog‘dorchilik va dehqonchilik madaniyati bilan aloqada bo‘lgan va ular xo‘jaligi asosan yarim ko‘chmanchilik tarzida yuritilgan. Ustrushonada chorvani saqlashning ko‘chmanchi xili mavjud bo‘lsada, yarim ko‘chmanchilikning yaylov chorvachiligiga xos ko‘rinishi keng ommalashgan. Xo‘jalik yuritishning talabi va chorva ehtiyojidan kelib chiqqan bu holat an’anaviy chorvachilik (ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi) turlarini shakllanishiga asos bo‘lgan.

Shunday qilib, tarixiy tadqiqotlarda tarixni dialektik madaniy tushunish va uning provard maqsadi – sivilizatsion yondashish doirasida o‘rganish o‘tmishni xolis va ilmiy o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yevrosiyoning O‘rta Osiyo bilan tutash hududlaridagi ijtimoiy siyosiy va etnik jarayonlar faqatgina Yevrosiyo dashtlaridan ko‘chmanchilarning yaylovlar izlab kirib kelishiga bog‘lanib qolmagan. Yuqorida sanab o‘tilganilaridan tashqari chorvadorlarning etnik jarayonlarda tutgan o‘rni, hunarmandchiligi, urf-odat va an’analari, qabr inshootlari va dafn marosimlarini alohida mavzu sifatida o‘rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Авенесова Н.А. Святилище ранних номадов Зарафшана // Афанасевский сборник 2.– Барнаул, 2012. – С. 8-27.

2.Авеста. Избранные гимны. Пер. с. Авест и коментарий И.М. Стеблин-Каминского. – М., 1990. – С.173.

3.Андрианов Б.В. Историческое взоимодействие кочевых култур и древних земледелческих сивилизатсии в свете консепсии о хозяйственно-културных типах // Взаимодействие кочевых култур и древних сивилизатсий. – Алма-Ата, 1987. – С. 9.

4.Базарбаев А. Жиззах воҳасида яйловлардан фойдаланиш масаласи (ХИХ аср охири – ХХ аср бошлари). "Уструшона Буюк ипак йўлида...". – Гулистон, 2016. – Б. 55.

5.Баруздин Ю.Д. Карабулакский могилник // ИАН Киргизской ССР. Серия общественных наук. Том 3. Вып.3. (История). – Фрунзе, 1961. – С. 43-82.

6.Барфилд Т. Дж. Опасная гранитса: кочевые империи и Китай (221 г. до н.е. – 1757 г. н.е.) / Пер. с английского Д.В. Рухлядева, В.Б. Кузнесова; науч. ред. и пред. Д.В. Рухлядева. – СПб., 2009. – С. 29.